



**BUXGALTERIYA HISABI MILLIY STANDARTLARINI MHXSGA MUVOFIQ
UYG'UNLASHTIRISH ZARURIYATI**

Pashaxodjayeva Dildora Djabborxonovna

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

ORCID: 0000-0001-8015-957X

Ikromova Odinakhon Orif qizi

Samarqand iqtisodiyot va servis instituti

Annotatsiya. Ushbu maqolada bugungi kunda dunyo iqtisodiyotining integratsiyalashuvi jarayonida O'zbekistonda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga (MHXS) o'tishning dolzarbligi va ahamiyati haqida so'z yuritilgan. Shuningdek, BHMS asosida tuzilgan moliyaviy hisobotlarni MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish masalalari, transformatsiya qilish bosqichlari keltirib o'tilgan hamda milliy standartlar va xalqaro moliyaviy hisobot standartlari o'rtasidagi farqlar tahlil qilingan.

Kalit so'zlar: transformatsiya, moliyaviy hisobot, moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS), hisobotni o'zgartirish bosqichlari.

**НЕОБХОДИМОСТЬ ГАРМОНИЗАЦИИ НАЦИОНАЛЬНЫХ СТАНДАРТОВ
БУХГАЛТЕРСКОГО УЧЕТА В СООТВЕТСТВИИ С МСФО**

Пашаходжаева Дилдора Джабборхановна

Самаркандский институт экономики и сервиса

Икромова Одинахан Ориф кизи

Самаркандский институт экономики и сервиса

Аннотация. В данной статье говорится об актуальности и важности перехода на международные стандарты финансовой отчетности (МСФО) в Узбекистане сегодня в процессе интеграции мировой экономики. Также упомянуты вопросы гармонизации финансовой отчетности, подготовленной на основе БХМС, в соответствии с МЗСС, этапы трансформации. Также анализируются различия между национальными стандартами и международными стандартами финансовой отчетности.

Ключевые слова: трансформация, финансовая отчетность, международные стандарты финансовой отчетности (МСФО), этапы изменения отчетности.

**NECESSITY OF HARMONIZING NATIONAL ACCOUNTING STANDARDS IN
ACCORDANCE WITH THE IFRS**

Pashakhodjaeva Dildora Jabborkhanovna

Samarkand Institute of Economics and Service

Ikromova Odinakhon

Samarkand Institute of Economics and Service

Abstract. This article talks about the relevance and importance of the transition to international financial reporting standards (IFRS) in Uzbekistan today in the process of integration of the world economy. Also, the issues of harmonizing the financial statements prepared on the basis of BHMS in accordance with the MHSS, the stages of transformation are mentioned. Differences between national standards and international financial reporting standards are also analyzed.

Keywords: transformation, financial reporting, international standards of financial reporting (IFRS), reporting change stages.

Kirish.

Mamlakatimiz iqtisodiyotining xalqaro darajada integratsiyalashuvi jarayonida xorijiy investitsiyalarni milliy iqtisodiyotimizga jalg qilishda, shuningdek, xalqaro maydonda yuqori pog'onalarga erishishda avvalambor buxgalteriya hisobini yanada takomillashtirish hamda korxonalarda buxgalteriya hisobini xalqaro standartlarga moslashtirish muhim masalalardan biri hisoblanadi.

Mamlakatimizda ham bu borada qator chora-tadbirlar amalga oshirilib kelinmoqda. Xususan, ushbu islohotlarni yanada jadal suratlarda rivojlantirish uchun mamlakatimiz rahbari tomonidan "O'zbekiston – 2030" strategiyasida "Mamlakatimizda 250 milliard dollarlik investitsiyalarni o'zlashtirish, jumladan 110 milliard dollar xorijiy investitsiyalar va 30 milliard dollar davlat-xususiy sheriklik doirasidagi investitsiyalarni jalg qilish, erkin muomaladagi qimmatli qog'ozlar savdolari hajmini 8 milliard dollarga yetkazish, hududlarning investitsion reytingini yuritish, har bir hududning imkoniyatlaridan kelib chiqib, uning investorlar uchun jozibadorligini yanada oshirish, eksport hajmini 2 barobar oshirish va 45 milliard dollarga yetkazish, eksportchi korxonalar sonini 6,5 mingtadan 15 mingtaga yetkazish, eksport tarkibida tayyor va yarim tayyor mahsulotlar hajmini 3,3 barobar ko'paytirish, Yevropa davlatlariga GSP+ va boshqa tizimlari doirasida tayyor va texnologik mahsulotlar eksportini kengaytirish, xalqaro standartlar joriy qilingan korxonalar sonini 10 barobarga oshirish va ular sonini 5 mingtaga yetkazish" vazifalari yuklatilgan⁷⁸.

Shuningdek, respublikamiz iqtisodiyotining yetakchi tarmoqlari va sohalarida xorijiy investitsiyalar ishtirokida 4200 dan ko'proq qo'shma korxonalar tashkil qilingan. Bu korxonalardan 850 dan ortig'i Rossiya Federatsiyasiga, 396 tasi Buyuk Britaniya, 242 tasi AQSh, 159 tasi Qozog'iston, 114 tasi Germaniya va boshqa mamlakatlar investisiyalar ishtirokidagi korxonalar hissasiga to'g'ri keladi. Shuningdek, erkin iqtisodiy zonalar xajmi ham ortib bormoqda. Tabiiyki, bunday sharoitda buxgalteriya hisobini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari (MHXS) asosida tashkil etish va yuritishni talab qiladi.

Mamlakatimiz iqtisodiyotida ham bu bo'yicha bajariladigan ishlar esa albatta, xalqaro maydonga barcha uchun tushunarli, aniq va shaffof tarzda tayyorlangan mahsulotlarni taqdim etishda asosiy vositachi bo'lib xizmat qiladi. Bunda O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarorining (PQ-4611, 2020) qabul qilinishi ushbu sohani yanada rivojlantirishga asosiy mezon bo'lib xizmat qilmoqda. Bu qarorga muvofiq, 2021-yil 1-yanvardan boshlab aksiyadorlik jamiyatlari, tijorat banklari, yirik soliq to'lovchilar toifasiga kiruvchi korxonalar MHXSga muvofiq moliyaviy hisobotlarini tayyorlashi hamda bu sohada mutaxasislarni tayyorlash masalalarini xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish, bu orqali xorijiy investitsiyalarni jalg qilish va boshqa masalalar bo'yicha vazifalar belgilab berilgan (Qaror, 2020).

Yuqorida aytildi fikrlardan ko'rini turibdiki, buxgalteriya tizimida xalqaro standartlardan foydalanish - axborotdan foydalanuvchilarga kompaniyaning moliyaviy holati to'g'risida shaffof va ishonchli tarzda ma'lumotlarni yetkazib berishda va bu orqali iqtisodiyotimiz rivojlanishida asosiy omillardan biri bo'lib xizmat qiladi.

Adabiyotlar sharhi.

Iqtisodchilar Karimov A.A. va Raxmatullayev O.Q. (2021) o'z ilmiy ishlarida milliy standartlarga muvofiq tuzilgan moliyaviy hisobotlarni xalqaro moliyaviy hisobot standartlari asosida transformatsiya qilish haqida quyidagicha fikrlarni bildirib o'tganlar: "Transformatsiya ixtisoslashtirilgan dasturlarning majbuliy mavjudligini talab qilmaydi va elektron jadvallar yordamida amalga oshirilishi mumkin. Transformatsiya - bu tashkilotning ma'lumotlarini boshqa buxgalteriya standartiga qayta guruhlashdir. Birlashtirilgan MHXS bayonotlarini

⁷⁸ "O'zbekiston – 2030" strategiyasi. <https://lex.uz/ru/docs/6600413>

tayyorlashning ikki yo'li mavjud. Birinchi usul shundan iboratki, avvalo hisobot guruhning har bir kompaniyasi uchun xalqaro standartlarga muvofiq tayyorlanadi. Keyin ushbu ma'lumotlar umumlashtirilib, MHXSga muvofiq konsolidatsiyalangan moliyaviy hisobotni olish uchun tuzatiladi. Ikkinchisi, milliy standartlarga muvofiq yig'ma bayonotlarni tayyorlashni boshlanishiga va uni o'zgartirgandan so'ng MHXS ga muvofiq tayyorlashni o'z ichiga oladi."

Tashnazarov (2018) fikricha, dunyodagi moliyaviy hisob va moliyaviy hisobot jarayoni ilg'or tajribasidan kelib chiqib, transformatsion ishchi balans tuzish amaliyotiga o'tishimiz kerak. Ishchi balans schyotlarning qoldiqlarini transformatsion yozuvlar asosida moliyaviy hisobotning shakllariga o'tkazishni amalga oshiruvchi muhim jadval (registr) hisoblanadi.

Sotivoldiyeva (2019) o'z ilmiy tadqiqotlarida quyidagilarni keltirib o'tgan: "Biz quyidagi usullardan birini qo'llagan holda xalqaro standartlarga mos hisobotlarni olishimiz mumkin:

1. Transformatsiya orqali o'zgartirish usuli;
 2. Parallel hisob usuli.

Birinchi usul hisobotni BHMS dan MHXSga o'tkazish deb ataladigan maxsus protseduralar to'plamiga asoslanadi. Hisobotni milliy buxgalteriya hisobi standartidan MHXSga o'tkazish buxgalteriya hisobini MHXS formatiga kiritish uchun milliy me'yorlar va qoidalarga muvofiq tuzilgan hisobotlarni o'zgartirish imkonini beruvchi hisobot sanasiga tuzatishlar to'plamini amalga oshirishni anglatadi. Bunday holda, dastlab tadbirdorlik subyekti milliy standartlarga muvofiq hisobotlarni tayyorlashi kerak. Keyin, Excel formatida tayyorlangan maxsus jadvallardan foydalanib, kerakli o'zgarishlarni amalga oshirishlari zarur.

Buning uchun, birinchi navbatda, BHMS hisobotidagi ma'lumotlarni qayta guruhash va qayta tasniflash dastlabki balanslar jadvalida amalga oshiriladi. Transformatsiya orqali o'zgartirish usulida transformatsiya uchun oldindan ishlab chiqilgan birlashtirilgan tuzatishlar to'plami mavjud emas. Bu yerda, muayyan xo'jalik operatsiyalari to'plamiga va ularni BHMS va MHXSga muvofiq baholash va hisobga olish qoidalaridagi farqlarga qarab, transformatsiya har bir hisobot uchun alohida xususiyatga ega bo'ladi" (Sotivoldiyeva, 2019).

Rossiya olimlari tomonidan boshqa manbalarda quyidagicha ta’rif berilgan: “Transformatsiya – Rossiya standartlari bo‘yicha tuzilgan hisobot ma’lumotlari bazasi asosida xalqaro standartlarga muvofiqlashtirish maqsadida klassifikatsiyalar parametrlarini o‘zgartirish va hisob obyektlarini baholash hamda ular to‘g’risida axborotlarni ochiqlash yo‘li bilan MHXSlariga muvofiq holda hisobot tuzish jarayonidir” (Shokiraliyevich, 2021).

Tadqiqot metodologiyasi.

Ushbu maqolada moliyaviy hisobotning xalqaro standartlaridan mamlakatimiz buxgalteriya tizimida foydalanish, xalqaro standartlarni transformatsiya qilishning ahamiyati va zarurligi bo'yicha xorijiy va mahalliy olimlarning ishlari o'rganildi va tahlil qilindi. Tahlil jarayonida analiz va sintez, kuzatish, tahlil qilish usullaridan hamda jadvallardan foydalanildi.

Tahlil va natijalar muhokamasi.

Moliyaviy hisobot transformatsiyasi – bu hisobot sanasi holati bo'yicha buxgalteriya hisobining milliy standartlari asosida tuzilgan hisobot komponentlari moddalarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari qoidalariga muvofiq holda qayta guruhlashtirish, ularning moddalarini qayta tan olish, qayta baholash, to'g'irlashlar kiritish va qayta ochiqlashlar asosida MHXSlari hisobotlari axborotlarining yangi tizimiga o'tkazish va qayta tashkil qilish jarayonidir.

Mamlakatimiz buxgalteriya tizimida ham xalqaro standart talablaridan foydalanish, ularni milliy buxgalteriya hisobiga standartlariga uyg'unlashtirish bo'yicha barcha ishlar amalga oshirilmoqda. Bunda O'zbekiston Respublikasi Iqtisodiyot va Moliya Vazirligi moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini (MHXS) joriy etish bo'yicha vakolatli organ sifatida buxgalteriya hisobining milliy standartlari (BHMS)ni MHXSga muvofiq uyg'unlashtirish ishlarini amalga oshirib kelmoqda.

Osiyo taraqqiyot banki (OTB) esa iqtisodiyot boshqaruvini takomillashtirish dasturi doirasida Moliya vazirligiga kichik va o'rta biznes korxonalari uchun MHXS asosidagi moliyaviy hisobotning milliy standartini (MHMS) ishlab chiqishda ko'mak ko'rsatmoqda.

BHMSni MHXSga muvofiq uyg'unlashtirishda transformatsiya ixtisoslashtirilgan dasturlarning majburiy mavjudligini talab qilmaydi va elektron jadvallar yordamida amalgा oshirilishi mumkin. Transformatsiya - bu tashkilotning ma'lumotlarini boshqa buxgalteriya standartiga qayta guruhlashdir. Quyidagi jadval ma'lumotlari orqali buxgalteriya hisobi milliy standartlarini MHXSga muvofiq uyg'unlashtirishda hisobot tayyorlash usullarini ko'rib chiqamiz:

1-jadval

BHMSni MHXSga muvofiq uyg'unlashtirishda MHXS formatida hisobotlarni tuzish usullari

Hisobot tayyorlash usullari	Usulning mohiyati
Parallel hisob	Buxgalteriya hisobi bir vaqtning o'zida milliy va xalqaro standartlar bo'yicha amalgा oshiriladi
Kombinatsiyalangan usul	Buxgalteriya hisobidan BXMSga muvofiq davriy tarjima, keyinchalik tuzatishlar kiritilgan holda MHXSga muvofiq o'tkaziladi
Transformatsiya qilish	MHXS bo'yicha hisobot ko'rsatkichlari asosida MHXS shakllantiriladi

Parallel hisob – bu korxonaning buxgalteriya hisobini bir vaqtning o'zida mamlakatning ichki standartlari hamda xalqaro standartlar qonun-qoidalariga asosan yuritish hisoblanadi. Bunda buxgalteriya hisobini yuritishda bir marta provodka berilganda natija ikki bazaning xotirasiga saqlanadi. Ya'ni, xo'jalik faoliyatining har bir fakti ikki marta qayd etiladi: birinchi marta BHMS bo'yicha buxgalteriya tizimida, ikkinchisi – MHXS bo'yicha. Parallel buxgalteriya hisobini tuzishda MHXS bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlari asosida shakllanadi.

Kombinatsiyalangan usul – buxgalteriya hisobidan buxgalteriya hisobotiga keyingi tuzatishlar bilan muntazam ravishda ma'lumotlarni uzatishdir. Usul har qanday vaqtida ma'lumotni oshkor etishni yetarli darajada aniqligini ta'minlaydi, chunki buxgalteriya hisoboti tugashini kutishning hojati yo'q. Hisobotlarni tayyorlash uchun barcha yirik xo'jalik operatsiyalari bo'yicha buxgalteriya ma'lumotlari yetarli. Amaliyot shuni ko'rsatadiki, hozirgi paytda asosan transformatsiya usuli qo'llaniladi.

Transformatsiya – bu hisobot sanasida amalgा oshiriladigan jarayon bo'lib, milliy buxgalteriya standartlari bo'yicha tayyorlangan moliyaviy hisobot ko'rsatkichlarini moliyaviy hisobotning barcha elementlarini tan olish, o'lchash va oshkor qilishning tegishli tamoyillarini hisobga olgan holda MHXS formatiga o'tkazish uchun zarur bo'lgan barcha tuzatishlarni o'z ichiga oladi. Shuni ta'kidlash lozimki, moliyaviy hisobot transformatsiyasining tartib va qoidalarini belgilaydigan MHXSlari mavjud emas. Shu bois, har bir korxona o'zining hisob siyosatida transformatsiya asoslarini mustaqil ishlab chiqishi lozim.

Ma'lumki, O'zbekiston Respublikasi Prezidentining "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida" qarori ishlab chiqilgan (PQ-4611, 2020). Mazkur qarorda xorijning ilg'or tajribasini hisobga olgan holda moliyaviy hisobotning xalqaro standartlarini va mazkur sohada kadrlar tayyorlashning zamonaviy usullarini bosqichma-bosqich joriy etish bo'yicha "Yo'l xaritasi" ishlab chiqildi. Ushbu qarorning ahamiyatli jihatlaridan biri shuki, bu MHXS hujjatlarini O'zbekiston Respublikasida tan olinish masalasini hal qilib berdi. Xususan, "Yo'l xaritasi"da belgilangan birinchi vazifa MHXS va unga tushuntirishlar matnlarini tarjima qilish yakunlandi va Moliya vazirining "O'zbekiston Respublikasi hududida qo'llash uchun moliyaviy hisobotning xalqaro standartlari va unga tushuntirishlar matnini tan olish to'g'risida"gi 1087-sون buyrug'i qabul qilindi. Hujjatga

muvofiq O'zbekiston Respublikasi hududida 60 dan ziyod MHXS va ularga tushuntirishlar matni qo'llaniladi. Endilikda, MHXS hujjatlarining tan olinishi va uni qo'llaydigan kompaniyalarning belgilab berilishi, ushbu kompaniya hisobchi va moliya mutaxassislaridan o'z malakasi ustida doimiy ishlashi va mas'uliyatni jiddiy his etishini talab etadi⁷⁹.

Shuningdek, "Yo'l xaritasi"ga asosan, Buxgalteriya hisobining milliy standartlarini MHXSga uyg'unlashtirishni hisobga olgan holda ularni takomillashtirish talab etadi. Buning uchun quyidagi muhim vazifalar belgilab olindi:

- Xalqaro ekspertlarni jalb qilgan holda buxgalteriya hisobining milliy standartlari va MHXS o'rtasidagi muhim farqlanishlar bo'yicha keng qamrovli axborotlar tayyorlash;
- Buxgalteriya hisobining yangi milliy standartlarini ishlab chiqish va amaldagi standartlarga o'zgartirishlar kiritish.

Demak, MHXS talablari asosida amaldagi buxgalteriya hisobi milliy standartlariga o'zgartirishlar kiritish yoki yangi standartlarni ishlab chiqish eng dolzarb masalalardan biriga aylandi.

Xulosa va takliflar

Buxgalteriya hisobi milliy standartlarini moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga uyg'unlashtirishning zaruriyati bo'yicha tadqiqotlar asosida quyidagi xulosalar qilindi:

1. Milliy iqtisodiyotimiz tizimizda, xususan, buxgalteriya tizimida xalqaro standartlarning joriy etilishi natijasida mamlakatimiz xalqaro axborotdan foydalanuvchilarga tushunarli va sifatli bo'lgan ma'lumotlarni yetkazib berish imkoniyatiga ega bo'ladi. Bu esa, o'z navbatida dunyo bozorida investitsiyalarning faol oqimini rivojlantirishga, hamda mamlakatimiz iqtisodiyotiga yanada ko'proq investitsiyalarni jalb qilish imkonini beradi.

2. Shuningdek, xalqaro standartlarning mamlakatmiz iqtisodiyotida qo'llanilishi natijasida, moliyaviy axborotning boshqa mamlakatlar iqtisodiy axborotlari bilan taqqoslanuvchanligini ta'minlashga erishishimiz mumkun. Bu esa, axborotdan foydalanuvchilarga to'g'ri qaror qabul qilishi hamda to'g'ri prognozlashtirish uchun yordam beradi.

Adabiyotlar / Литература/ Reference:

Qaror (2020) O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2020-yil 24-fevraldaggi PQ-4611 "Moliyaviy hisobotning xalqaro standartlariga o'tish bo'yicha qo'shimcha chora-tadbirlar to'g'risida"gi qarori.

Shokiraliyevich, G. A. I. (2021). Increasing The Income Of The Population And Reducing. The Tax Burden As A Key Factor In Improving The Living Standards Of The Population. The American Journal of Management and Economics Innovations, 3(07), 7-10.

Sotivoldiyeva D.A. (2019) Бухгалтерский учет. Учебник. -Т.: ТДИУ. Иқтисодиёт, -530 с.

Tashnazarov S.N. (2018) Moliyaviy hisobotning nazariy va metodologik asoslarini takomillashtirish. (MHXS va ilg'or xorijiy tajribalar asosida). Monografiya.

⁷⁹ AICPA, IFRS FAQs, www.ifrs.com